

KO‘PMA’NOLILIK – POLISEMIYA TUSHUNCHASI

Abdullayeva Fayoza

ToshDSHI 2-kurs magistranti

Annotatsiya

Maqola polisemiya tushunchasiga bag‘ishlangan bo‘lib, misollar yordamida ushbu tushuncha yoritib berilgan.

Polisemiya har qanday tilda ham salmoqli o‘rin tutadi. Til boyligi faqat so‘zlar, iboralar bilangina emas, so‘zlarning leksik ma’nolari bilan ham o‘lchanadi. Demak, so‘zlarning ko‘pma’noliligi – polisemiya til boyligida o‘z o‘rniga ega.

Tildagi polisemiya hodisasi juda qadimdanoq olimlar diqqatini o‘ziga jalb qilib keldi. Eramizdan avval uni falsafa va uslubiyat nuqtai nazaridan o‘rganishdi. O‘rta Osiyoning buyuk leksikografi Mahmud Qoshg‘ariy ham o‘zining mashhur “Devonu lug‘ati turk” kitobida turkiy polisemantik so‘zlarni qayd etadi. Biroq unda polisemantik so‘zning har bir ma’nosi alohida so‘z sifatida berilgan. Bu holatni “Attuhfatuz zakiyati fil lug‘atit turkiya”da ham, Zamaxshariyning “Muqaddimat ul-adab” lug‘atida ham ko‘rishimiz mumkin. XV-asrning buyuk mutafakkiri Alisher Navoiy ham turkiy til imkoniyatlarini fors tiliga solishtirib tahlil qilganida, so‘zlardagi ma’no boyligiga to‘xtab o‘tgan edi.

Ma’naviy birlik sifatidagi so‘z leksik va grammatik semantikaga ega. Leksikologiya so‘zga tilning lug‘at tarkibining birligi sifatida yondashib, so‘zning leksik ma’nosining asosiy birligi bo‘lmish leksik semantikani o‘zining asosiy o‘rganish ob’yekti qilib olgan. So‘zning leksik semantikasi deganda, so‘zning signifikativ¹, ya’ni mazkur so‘zda mavjud bo‘lgan denotat²da aks ettirilgan axborotni hisobga olgan holda voqe’likdagi muayyan hodisalarga nisbatlanishi tushuniladi. Shunday ekan, so‘zning leksik ma’nosi, bir tarafdin, so‘zning tilga aloqador bo‘lmagan mazmunlar³ va mazkur so‘z bilan ifodalanuvchi so‘zning

¹ Ma’noning til bilan bog‘liq jihati.

² Til birligining xususiy mazmunini, asosiy ma’nosini ifodalovchi.

³ Denotatlar.

shakli, uning hissiy bo'yoqlari va ta'sirchanligini o'z ichiga olgan xarakteristikasini o'zida birlashtiradi⁴.

Bir so'zning o'zi bir nechta tur xil ma'nolarni anglatishi mumkin. Bu ma'nolar o'zaro aloqador bo'lishlari, ko'p ma'noli umumiy tushuncha ya'ni polisemiya asosidan semantik birlikni tashkil qilishi yoki o'zaro semantik bog'lanishga ega bo'lmagan so'zlarning tovush majmualarini⁵ hosil qilishi mumkin.

Ko'p ma'noli so'zlar, odatda o'zaro bog'lanmagan yoki kam darajada bog'langan predmet va hodisalarni anglatsalarda, ko'p ma'noli so'zlarning ma'nolari o'zaro asoslantirilgan bo'ladi va o'zaro tobe' bo'lgan ma'nolarni ifodalaydi va so'zning aynan o'xshashligiga putur yetkazmaydi. Ko'p ma'nolilik voqe'likdagi predmet va hodisalar, hamda tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishlar asosidagi emas, balki ma'nolar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik asosida yuzaga keladi.

Polisemiya eng avval "dolzarb derivatsiya"⁶ bog'lanishlari orqali birlashgan, so'zlovchilar tomonidan xuddi bitta yasama so'zlar elementlari o'rtasidagi munosabatlari kabi anglanadigan ma'nolar qatori sifatida qaraladi. Ko'p ma'noli so'zlarning ayrim leksik ma'nolari so'z semantik tuzilishining tarkibiy qismlari sifatida ichki bog'lanish orqali o'zaro bo'ysundirilganligi ular funksiyasiga ham, rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Ko'p ma'nolilik arab leksikasida keng tarqalgan va u bir ma'nolikka nisbatan umumiy qoida hisoblanganligi uchun, eng ko'p qo'llaniladigan so'zlar uchun xos bo'lgan hodisadir. Bir ma'nolilik arab tilida nisbatan kam uchraydigan hodisadir.

Polisemiya qadimdan nutqning cheklangan miqdordagi belgilari bilan tilda ifodalanishi lozim bo'lgan son-sanoqsiz miqdordagi tushunchalar o'rtasidagi nomutanosiblik natijasida yuzaga keladigan hodisa hisoblanadi. Aslida "har bir ma'no uchun uning o'zini ifodalaydigan alohida ifoda bo'lishi lozim, biroq bunday qilishning imkoni yo'q". Faxriddin ar-Roziy va uning izdoshlari "har bir ma'no alohida so'z bilan ifodalanishi mumkin emas, chunki ma'noni anglab olinishi cheklanmagan bo'lishi mumkin. So'zlarning harflardan tashkil topishi va harflar son jihatidan chegaralangan ekanligi uchun, ularning miqdori cheklangan bo'ladi. "Chegaralangan miqdordagi narsadan hosil qilingan so'zning miqdori

⁴ T. Qodirov D. Aliyev. Arab tili leksikologiyasi. – T.: ToshDSHI, 2010, – B.76.

⁵ Omonimiya

⁶ Yangi so'zlarni affikslar yoki ularsiz hosil qilish.

cheklangan darajada bo'ladi. Miqdori cheklangan narsa esa chegaralanmagan miqdordagi narsani ifodalay olmaydi. Aks holda ifodalanayotgan narsaning miqdori ham cheklanib qolgan bo'lar edi. Shuning uchun ham, uning fikriga ko'ra, *الاسماء المشتركة* ni yaratish ehtiyoji tug'ildi, shu boisdan ham ifodalanishi lozim bo'lgan turli ma'nolar uchun *أللون* va *ألجون* va *ألعين* kabi bir xil ifodalar belgilandi⁷.

Arab tili tarixi davomida yaratilgan so'zlarning birlamchi ma'nolari asosan aniq va ta'sirchandir. Arablar o'zlarini o'rab turgan borliqdagi turli-tuman narsa va hodisalarni aniq nomlaganlar.

Aniq ma'nodan mavhum ma'nolarga o'tish tarixiy nuqtai nazardan qaraganda oddiy o'tish turi hisoblanadi. Fe'llarning leksik-semantik-grammatik aloqalarni kengaytirish orqali aniqlikdan mavhumlikka o'tish fe'llarga xos xususiyatdir, bu esa o'z navbatida ularning sintaktik-grammatik aloqalarini o'zgarishiga olib keladi. Bu jarayon ayniqsa "إمتطى" – egarlanadigan hayvonga minmoq, "ناضل" kim bilandir merganlikda musobaqalashmoq, "إستفتى" shariat masalalari bo'yicha xulosa chiqarib berishni so'ramoq, "إتراد" o'tloq va suv izlash uchun jo'namoq, "إستورد" suv olib kelish uchun ketmoq va hokazo kabi o'z ob'yektlari doirasini kengaytirgan va shu orqali ma'nolarni imkoni boricha umumlashtirgan ichki ob'yektli fe'llarda namoyon bo'ladi.

Nomlarda yangi ma'nolarni hosil bo'lishi asosan, so'zni nom sifatida bir predmet yoki qadimdan ikkinchi bir predmet yoki hodisaga har qanday ko'chirib o'tkazish oddiy predmet almashinuvini anglatishi tufayli so'zdagi predmet – tushuncha mazmunining o'zgarishi bilan bog'liq, buning ustiga so'zga atama sifatida qo'llangan har bir hol nomning aniq predmetga ko'chirib o'tkazilgan paytda ham fe'l derivatlari⁸ning abstrakt semantikadan aniq – predmet nom semantikasiga o'tish paytida ham uning leksik bog'lana olish xususiyatini o'zgartirib yuboradi. So'zlarning leksik jihatdan ham va ko'p hollarda sintaktik jihatdan ham bog'lana olish xususiyatining o'zgarishi barcha hollarda bo'lib o'tayotgan semantik o'zgarishlarning eng ob'yektiv ko'rsatgichi hisoblanadi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, polisemantika keng tushuncha bo'lib, unga sinonimiya, so'zlarning ma'nolariga ko'ra o'zgarishi, ma'nolarning o'zgarishi, so'zlarning o'zgarishi kabi hodisalar kiradi. Biz maqolamizda ana shunday hodisalar haqida bir muncha to'xtalib o'tdik.

⁷T. Qodirov D. Aliyev. Arab tili leksikologiyasi. – T.: ToshDSHI, 2010, B. 77.

⁸masdarlar, haqiqiy sifatdoshlar va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov T., Aliyev D. *Arab tili leksikologiyasi*. – T., 2010.
2. Nosirova M. *Tilshunoslik bilimlar tarixi*. – T., 2011.
3. Mirtojiyev M. *O'zbek tilidapoli semiya*. – T.: Fan, 1975.
4. Mirtojiyev M. *Hozirgi o'zbek tili*. – T.: O'qituvchi, 1992.
5. *O'zbek tili grammatikasi. 1-tom. Morfologiya*. – T.: Fan, 1975.